

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TA'LIMI FAKULTETI
“BADIY GRAFIKA VA UNI O'QITISH METODIKASI” KAFEDRASI

Salimova Mashhura

“O'zbekiston haykaltaroshligining yangicha rivojlanishi”

5110800 –Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

KURS ISHI

ILMIY RAHBAR:

D.Omonov

Samarqand-2015

M U N D A R I J A

KIRISH

I. BOB. Haykaltaroshlik - tasviriy sanat turi

- 1.1. Haykaltaroshlik san'atining qisqacha tarixi va uning
nazariy asoslari
- 1.2. Haykaltaroshlik mashg'ulotlari o'tkaziladigan xonani jihozlash

II. BOB. O'zbekiston haykaltaroshligining yangicha ko'rinishlari

- 2.1 Mustaqillik yillari O'zbekiston haykaltaroshligi
- 2.2. Bir yodgorlik tarixi: Amir Temurning otliq haykali
- 2.3 Buyuk ajdodlarimiz siymolarining tasviriy va haykaltaroshlik
san'ati orqali tiklanishi

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida fan, texnika, ta'lim madaniyat va san'atning barcha yo'nalishidagi mutaxassislarni tayyorlash vazifasi qo'yilgan. Shu maqsadda barcha fanlar uchun, shu jumladan tasviriy san'at fani uchun ham Davlat Ta'lim Standartlari ishlab chiqilgan.

Tasviriy san'atning aynan manzara janrlari ustida ishlash katta ahamiyatga ega. Tasviriy faoliyatning nazariyasini muntazam o'rganish, tasviriy san'at ta'limini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy shartlaridandir. Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan talabagina amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin. Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qaerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi deya ta'kidlagan Leonardo da Vinchi. Ayniqsa rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bog'liq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi.

Bir qancha rassomlarni tarbiyalagan, ajoyib pedagog-rassom D.N.Kardovskiy aytganki: «naturada ham, ishni boshqarishda ham asosiy e'tibor shunga qaratilishi kerakki, butun darsni o'tish jarayonida ranglar nisbatini hisobga olish zarur Doimo rang munosabatlari bilan ishlash va fikrlashga o'rganish kerak».

O'zbek xalqining ma'naviy salohiyati, uning san'at taraqqiyotidagi ahamiyati mavzusi respublikamiz olimlari tamonidan maxsus o'rganilmagan bo'lsada, mavzuning alohida yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlarni ko'plab faylasuf olimlarimiz asarlaridan olishimiz mumkin.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan uning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish printsiplari" Qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish printsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. Unda ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligi qayd etiladi.

I. BOB. Haykaltaroshlik - tasviriy sanat turi

Birinchi navbatda e'tirof etish kerakki, nazariy metodologik asos bo'lib xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" asarida ma'naviyat, uning mezonlari, san'atga ta'siri to'g'risida ko'plab dolzarb fikrlar bildirilgan. Jumladan, "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" asarida Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, **ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar** ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy omillar bo'lib xizmat qiladi.

Ma'naviyat, uning ta'rifi va xususiyatlarini ilmiy tahlil qilgan, o'rgangan olimlarni birinchi guruhga kiritamiz.

I.A.Karimovning asarlarida Ma'naviyatning ta'rifi, u haqidagi ilmiy xulosalar, uni rivojlantiruvchi mezonlar, xalq ongiga singdirish masalalari, moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi, milliy va diniy qadriyatlar aloqadorligi, ma'naviy barkamol, sog'lom avlod, komil inson g'oyalari va uning fazilatlari o'ziga xos tarzda yoritilgan¹.

"Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarida, mamlakatimizda barqoror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida, amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqoror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi.

"O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" nomli asarda "Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi an'analарimizning

¹ I.A.Karimov. Asarlar jildlari 1-19.

saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir", deb takidlab o'tgan edilar.

Azimov.I. O'zbekiston naqshu nigorlari. Mazkur kitobda naqsh san'atining shakllinish tarixi, uning me'morchilikda tutgan o'rni va unda ganchkorlik san'atining rivojlanish bosqichlari, hozirgi kuni haqidagi ma'lumotlar yoritilgan bo'lib, shu bilan birga O'zbekiston hududida joylashgan qadimiy shaharlardagi me'morchilik obidalariga ishlangan naqshu nigorlardan ajoyib namunalar berilgan Abdullaev N. ning "San'at tarixi" asarida san'atning paydo bo'lishi, shakllanishi, taraqqiy etishi ko'rsatib o'tilgan¹⁰.

Kabirov J. ning "Sarmishsoy qoya toshlaridagi rasmlar" asarida ajdodlar tomonidan yaratilgan koya tosh tasvirlarining mazmun-mohiyati haqida fikrlar yuritilgan¹¹.

Oydinov N. ning "O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar" asarida san'at tushunchasi, uning ta'rifi, mazmun-mohiyati, tasviriy san'at turlari va janrlariga, takomil bosqichlariga to'xtalgan¹².

Xolmirzaev A. ning "Zarautsoy tilsimlari" asarida mezolit davriga oid Zarautsoy qoya tosh tasvirlari, unda aks etgan g'oya va fikrlar, o'sha davr insonining ong va tafakkur darajasi haqida yozilgan¹³.

Uchinchi guruhga, ma'naviy-ruhiy kamolotni san'at va boshqa sohalar bilan aloqador tamonlarini o'rgangan olimlarni kiritishimiz mumkin.

Aliyev A. "Ma'naviyat, Qadriyat va Badiiyat"¹⁴, Umarov E. "San'atning ma'naviy asoslari"¹⁵, Imomnazarov M. "Milliy ma'naviyatimiz asoslari"¹⁶, To'xtayev N. "O'zbekiston Respublikasi: Ensiklopedik ma'lumotnoma"¹⁷, Sulaymonova F. "Sharq va G'arb"¹⁸, va boshqa olimlar bu mavzuni ba'zi jihatlarini yoritishgan.

¹⁰ N.Abdullayev. San'at tarixi,-T.,2001 y.

¹¹ J.Kabirov . Sarmishsoy qoya toshlaridagi rasmlar,-T.,O'.,1976 y.

¹² N.Oydinov. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar,-T.,O'.,1997 y.

¹³ A.Xolmirzayev. Zarautsoy tilsimlari,-T.,Sh.,2003y.

¹⁴ A.Aliyev. Ma'naviyat, Qadriyat va Badiiyat,-T.,A.,2000y.

¹⁵ E.Umarov. San'atning ma'naviy asoslari,-T.,2008 y.

¹⁶ M.Imomnazarov. Milliy ma'naviyatimiz asoslari,- T.,F.j.,2006 y.

¹⁷ N.To'xtayev. O'zbekiston Respublikasi: Ensiklopedik ma'lumotnoma,-T.,2002y.

¹⁸ F.Sulaymonova. Sharq va G'arb,T.,O'.,1997 y.

Umumiy ta'lim tizimida rasm ishlashni takomillashtirishda frantsuz olimi J.J.Russoning fikrlari diqqatga sazovordir. U o'zining kitobida borliqni bilishda naturaga qarab rasm ishlashning ahamiyati katta ekanligini isbotlab bergan. Uning fikricha rasm chizishni ko'proq tabiat qo'ynida amalga oshirish samaralidir. Chunki, bolalar tabiat qo'ynida narsalarni haqiqiy rangi, perspektiv qisqarishlarini ko'rgazmali ravishda o'z ko'zlari bilan ko'radilar, uning qonunlarini ongli ravishda tushunib etadilar.

Maktablarda rasm ishlashda natural metoddan ko'ra geometrik metodlarni afzalliklarini N.Pestalotsti, P.Shmidt va I.Shmidt kabi pedagoglar yoqlab chiqdilar. Natijada, maktablarda rasm chizishga o'rgatishda ikkita qarama-qarshi natural va geometrikmetodga asoslangan ikki oqim paydo bo'ldi. Naturaga asoslangan rasmchizishni ustunliklarini Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.V.Gyotelar yoqlagan bo'lsalar, geometrik metodni ko'proq I.G.Pestalotsti, I.Shmidt va P.Shmidt, F.Dyupyular asoslashga harakat qildilar.

Badiiy ta'lim va tarbiyadagi bu qarama-qarshi oqimlarning paydo bo'lishiga sobiq sovetlar hokimiyatining o'rnatilishi sabab bo'ldi. Ta'lim va tarbiyadagi bu nazariya keyinchalik xukmron bo'lgan sobiq bolsheviklar partiyasi tomonidan qattiq tanqid ostiga olindi hamda badiiy tarbiya kommunistik tarbiya vazifalarini ruyobga chiqarishga qaratildi.

XX asrning ikkinchi yarmida o'qitish metodikasiga doir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Natijada, rasm chizish bo'yicha sinov darsliklari tayyorlanib, nashr etildi. Bu darsliklar V.V.Kolokolnikov S.A.Fyodorov, M.N.Semyonova, E.E.Rojkova, E.L.Xersonskaya, muallifligida tayyorlandi. Rossiya maktablarida ta'lim mazmunini isloh qilish borasida hukumat qarorlari asosida rasm chizish o'quv predmetini maqsad va vazifalari va ta'lim mazmuni bir necha bor qayta ko'rib chiqildi. Natijada, 1970 yilda "Rasm" o'quv predmetining nomi "Tasviriy san'at" deb o'zgartirildi. Bu nomda tayyorlangan dasturda estetik tarbiya vazifalari hamda rassomlar asarlarini o'rganilishiga doir qismlar kengaytirilgan edi.

Birinchi va uchinchi guruh olimlari tomonidan tuzilgan dastur "Tasviriy san'at va badiiy mehnat" deb nomlanib, u I-X sinflarda o'qitish uchun

mo'ljallangan edi. B.P.Yusov rahbarligida tuzilgan dastur har bir sinfda bu o'quv predmetini ikki soatdan o'qitilishini nazarda tutgan edi.

1.1 Haykaltaroshlik san'atining qisqacha tarixi va uning nazariy asoslari

Qadimgi Misrda piramidalar va maqbaralar qurilishi podsho hukmdorligining qanchalik kuchli bo'lganligidan dalolat beradi. Bu maqbaralarga vafot etgan fir'avnlarni dafn etilgan edi. Eng katta piramida eramizdan 2600 yil avval



Memfis yaqinida fir'avn Xeops uchun qurilgan. Piramidaning balandligi 146 metr, uning atrofini aylanib chiqish uchun 1 km yurish kerak. Uni qurishga 2300 dona xarsang tosh ketgan. Toshlarning eng kichigi 2 tonnaga teng. Ulkan Sfinks Piramidalar yaqinida butun bir qoyadan - sher boshli haykal o'yib ishlangan.

Fir'avnlarning biri Sfinks shaklida tasvirlangan, haykalning balandligi 20 metrdan ortiq. Tosh pahlavon shunday qo'rquv uyg'otar ediki, uni «Daxshat otasi» deb atashar edi. Bu ulkan piramidalar va Sfinks orqali misrliklar ongiga fir'avnlarni oddiy odamlar emas, balki qudratli hudolardir degan fikrni singdirishga harakat qilganlar. Bu piramidalar



hozir ham fir'avnlarni xokimiyatining guvohi sifatida hamon ko'kka bo'y cho'zib turibdi.

Fir'avn Tutanxamon, Exnaton hamda go'zal va aqlli malika Nefretetilar siymolari aks ettirilgan haykallar butun jahonga mashhurdir. Ayniqsa, malika Nefretetining portret - haykalida o'ziga xos go'zalligi, ichki ma'naviy olami, ayollarga hos nazokati mukammal ifoda etilgan. Bu portret - haykal o'z zamonasining mashhur haykaltaroshi Tutmes tomonidan mahorat bilan yaratilgan. Nefreteti haykalining qimmatli rangli

qimmatbaho toshlardan me'yorida qo'llanilgani bilan ham izohlanadi. YUz tuzilishi, bosh kiyim, bo'ynidagi taqinchoqlar tasvirida rangli toshlar juda ustalik bilan ishlatilganki, haykaltaroshlik san'atida bu hildagi namunalar kam uchraydi. Nefreteti byusti timsolida rangli haykaltaroshlikning o'ta san'atkorona bajarilganligi guvohi bo'lamiz.

(Nefreteti haykali)

Piramidalardan topilgan haykalchalar fir'avn taxtda (qadimgi Misrdagi haykalcha), jangchilardan qochayotgan churi, qadimgi Misrdagi tibbiyotda ishlatiladigan bronza asboblari, kohin, nazoratchining maqbaradagi haykalchalari, fir'avn Tutankhamonning oltin tobuti (unda marxumning yuzi tasvirlangan), amaldorlarning yog'ochdan ishlangan haykalchalarga Misrliklarning e'tiqodiga qaraganda, ruh joylashib olar ekan. SHuning uchun ham marhumni ulug'vor bir qiyofada tasvirlaganlar, marhum o'lganidan keyin ham, hayot vaqtida qanday bo'lsa, shunday bo'lib qolishi, ya'ni fir'avn bo'lib qolishi kerak ekan. Biroq haykalchalarning yuz qiyofalari har hil bo'lgan; Misrlik haykaltaroshlar insonning yuz qiyofasini tasvirlashda katta mahoratga erishganlar. Haykallarning hayotiylikni bo'rtirib ko'rsatish maqsadida, ularni buyoqlar bilan bo'yaganlar, ularga billur va rangli toshlardan ko'zlar ham yasaganlar. Natijada maqbaraga kirgan kishi tasavvurida bu haykallar bir necha ming yil ilgari yasalgan haykal emas, balki tirik odam qarab turgandek ta'surot uyg'ota olgan. Qadimgi Yunonlarning va Rimliklarning bu boradagi izlanishlari ham e'tiborga molikdir. Evropaning janubida Bolkon yarim oroli bo'lib, uning janubiy qismida uncha katta bo'lmagan tog'lik mamlakat - Gretsiya joylashgan. Gretsiyada temir, mis, kumush, marmar konlari qadimdan mavjud bo'lgan. Arxeologik tekshirishlar shuni isbotlab beradiki, eramizdan avvalgi III-II ming yilliklarda qadimda, Evropada 1 - sinfiy jamiyat va davlat tashkil topgan, fan va madaniyat ancha taraqqiyotga erishgan.

Qadimgi doston va afsonalarda aytilishicha, haykaltaroshlar o'z asarlari uchun qahramonlar, mabudalarning poetik obrazlarini tanlab olganlar. Haykaltaroshlar odam gavdasini juda kelishga qilib tasvirlaganlar. Agar kishining qiyofasi xunuk bo'lsa, ellinlar buni tabiatning xatosi deb hisoblaganlar va o'z

ishlarida san'at bu xatoni tuzatishi kerak deb to'g'rilaganlar. Haykaltaroshlar Zevs va Poseydonning sersavlat haykallari qiyofasida grek shahar davlatlarining dono xukumdorlari qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatganlar. SHaharning e'tiborli joylarida ellinlar o'z vataniga shon-shuhrat keltirgan lashkarboshilar, shoirlar, faylasuflar, musobaqa g'oliblarining haykallarini o'rnatganlar.

Uyg'onish davri haykaltaroshligi

Uyg'onish davri san'atida haykaltaroshlik o'ziga xos o'ringa egaligi bilan ahamiyatlidir. Bu davrda haykaltaroshlik san'ati Gretsiya va Sarq mamlakatlarida taraqqiy etdi. Rimliklar Yunonistonni istilo qilganlaridan so'ng Italiyada ellin-Yunon madaniyatining ta'siri kuchayadi. Rimliklar Gretsiya va Sarq mamlakatlaridan ko'plab haykallarni olib kelish bilangina chegaralanmay, marmar va bronzadan ushbu haykallarning nusxalarini ham yaratganlar. Bir rim shoiri: «Asir qilingan Yunoniston johil Lasiyaga san'at olib kirib, yovvoyi g'oliblarni asir etdi» - deb yozgan ekan. Rimlik haykaltaroshlar haykaltaroshlik sirlarini Yunonlardan o'rganganlar va ularga taqlid qilganlar. Ko'pincha ular imperatorlarni xudolar va afsonaviy qaxramonlar sifatida tasvirlaganlar. Rimliklar olimpiya xudolariga sig'inganlar, ammo ularning nomlarini o'zgartirganlar. Masalan Zevsni Yupiter deb, dengiz xudosi Poseydonni Neptun, Gefeotni esa Vulqon deb ataganlar. Haykaltaroshlar Tsezar, Avgust, Troyan, Adrian, Konstantin, Diokletian kabi imperator, Gonnibal, Pompey kabi sarkarda va davlat arboblarning haykallarini ishlaganlar. Imperator g'alabalarini ko'klarga ko'tarib ishlangan haykallar, releflar, arklar, ustunlar imperator xokimiyati xudo tomonidan yaratilganligini va qurilganligini ifoda etishi lozim edi. Rim haykaltaroshlari portretlar yaratishda grek ustozlaridan o'zib ketdilar. Ular ishlagan portretlarda odam qiyofasining tashqi ko'rinishini ifodalabgina qolmay, balki ularning xarakterini johilligini aniq ochib berib ifodalay olganlar. Rim, Yunon va Sarq xalqlari madaniyatidan bahramand bo'lib, o'ziga xos madaniyat yaratganlar. Ayni paytda Rim madaniyati qator Evropa xalqlari madaniyati va san'atiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatgan.

Keyinchalik esa bu ibora keng ma'noda Italiyada, so'ngra Evropaning boshqa mamlakatlarida vujudga kelgan feodalizm davridan farq qiladigan san'atni ta'riflash uchun qo'llanila boshlandi. Uyg'onish davri o'z xarakatini Italiyada to'liq namoyon etib, qator taraqqiyot bosqichlarini boshdan kechirdi.

Bular asosan quyidagilardan iborat:

1. Uyg'onish arafasi davri - protorenessans (XIII-XIV asrlar)
2. Ilk uyg'onish davri - kvatrachento (XV asr)
3. Yuqori uyg'onish davri - (XV asrning 90 yillari, XVI asrning 20-30 yillari)
4. So'nggi uyg'onish davri - (XVI asrning ikkinchi yarmi)

Uyg'onish davrining buyuk haykaltarosh rassomlaridan biri

Leonardo da Vinchidir.

Leonardo da Vinchi o'z umrining ko'p qismini Italiyaning rivojlangan shaharlaridan biri Florentsiyada o'tkazgan. Leonardo 1452 yil 15 aprelda Vinchi qishlog'i yaqinida notarius oilasida dunyoga keldi. 1469 yilda otasi messer P'ero da Vinchi Florentsiyaga ko'chib o'tgach, Leonardoni mashhur rassom va haykaltarosh Verokkio ustaxonasiga o'qishga beradi. XV asrning 70 - yillarida Verokkio ustaxonasi Florentsiyaning badiiy markazlaridan biri edi. Leonardo bu ustaxonada tasviriy san'at asoslarini hamda perspektiva, anatomiya, matematika, rangtasvir, qalamtasvir va haykaltaroshlik sirlarini, realistik san'at uslublari mukammal o'zlashtira boshladi. U o'z ustози Verokkioga yordamlashib, uning "Isoni cho'qintirish" (Uffitsi, Florentsiya) va "Djinevr de Benchi" portreti (Venadagi Lixtenshteyn to'plami) asarlarini yaratishda o'z kuchini sinab ko'rib ustozidan ham mohir ekanligini ko'rsata oldi. Uning uchun san'at hayotni bilish vositasi bo'ldi. Rassomning Gul ushlagan Madonna asari, hayotni o'rganish zaminida yuzaga kelgan qalb harorati bilan isitilgan va hayotga bo'lgan munosabatini ifodalovchi asarlaridandir. Leonardo da Vinchi me'mor sifatida ham Milanda bir qator san'at va me'moriy loyihalarni ishladi. G'ordagi madonna (1483-1484), Sirli oqshom (1495-1497) kabi asarlarini Milandagi Santa Mariya della Gratsiya monastri uchun ishlangan surati uni navator darajasiga ko'taradi.


Milan Frantsiya qo'shinlari tomonidan bosib olingan yili Leonardo Florentsiyaga qaytib keladi. Bu erda mashhur Mona Liza (Jakonda) asarini yaratadi. Mona Liza portreti (Luvr, Parij 1503) jahon rangtasvirining mashhur yodgorligidir. Leonardo da Vinchining san'at rivoji uchun qo'shgan buyuk xizmatlaridan yana biri, u italyan rassomlari ichida birinchi bo'lib, o'z oldiga odam qiyofasini jonli tarzda tasvirlashni maqsad qilib olgan edi. Vazarining ta'kidlashicha Leonardo asarlaridagi qiyofa va qomatlarga harakat va nafas bera olgan rassomlardan biridir. Shu sababli ham uning izdoshlari Lorensio di Kredi, Pero di Kozimo, Fra Bartolomeo Andrea del Sarto, korredjo va buyuk rangtasvirchi rassomlar Rafael, Djordjone va Titsianlardir.

Gretsiyalik rassomlar - Dyurer, Luka Kranax, kichik Gans Golbeynlarga ham Leonardo da Vinchi kuchli ta'sir eta olgan. Niderlandlar. K.Masseys, Patinar, Gossart, Barend van Orley xamda Ioos va Klevelar, Ispaniyalik Fernando de Lyanos va Fernando Yan'es de la Almedina kabi rassomlar Leonardoga taqlid qilganlar va uning ixlosmandlari bo'lganlar. Buyuk rassom, xaykaltarosh, me'mor, olim Leonardo da Vinchi 1519 yilning 2 may kuni vafot etgan.

Mikelanjelo Buonarotti

Mikelanjelo Buonarotti haykaltaroshlik, me'morchilik, rassomlik turlarida ijod qilgan, lekin u san'atning qaysi turida ijod qilmasin shakliy jihatdan tug'al, g'oyaviy jihatdan chuqur, badiiy jihatdan go'zal asarlar yarata olgan Uygonish davrining buyuk san'atkorlaridandir. Mikelanjelo 70 yillik faoliyati davomida san'at maydonida davr ruhi bilan hamnafas asarlar yaratgan. Shu sababli xam u asarlarida davrning yuksak ideallari bilan bir qatorda bu ideallarning inqirozga yuz tuta boshlaganini ham nozik his etgan holda ko'rsata olgan san'atkordir. Mikelanjelo 1475 yili 6 martda Florentsiya yaqinidagi Kapreze shaharchasida dunyoga kelgan. Uning yoshligi Florentsiyada o'tdi. 13 yoshida u Florentsiyalik Domeniko Girlandayo ustaxonasiga o'qishga kiradi. Uning qobiliyati va yuksak iste'dodi Florentsiya xokimi Lorentso Medichini o'ziga tortadi. Uni Medichilar saroyi qoshidagi badiiy maktabga o'qishga olishadi. Saroyda yosh rassom antik dunyo san'ati namunalari bilan tanishadi va ulardan ko'chirmalar ishlaydi. Saroyda

bo'lib turadigan mashxur shoirlar, rassomlar, haykaltaroshlar va me'morlarning yig'ilishlaridan voqif bo'lgan san'atkorning dunyoqarashi shakllanadi. Mikelandjelo birinchi mustaqil ishlagan asari "Zina oldidagi Madonna" (1492 y. Florentsiya, Buonarroti muzeyi.), "Kentavrlar jangi" (1494 y. Florentsiya Buonarroti muzeyi), Rimda yaratilgan "P'ete" (Isoga aza tutish 1498-1501) haykali unga haqiqiy shon-shuxrat keltiradi. Mikelandjelo shogirdi Askanio Kondivanning yozishicha "uning san'atga bo'lgan muhabbati doimiy ijodiy izlanishlari va o'z ijodidan lazzat olishga intilishi turli guruxlardagi noqulayliklarni yoqtirmasligi uni tanxo ijod qilishga majbur etardi". Bu esa Vazari tomonidan yozilgan fikrlarga juda ham to'g'ri keladi.



Vazarining fikricha, Mikelandjelo tomonidan 1504 yilda yaratilgan va Florentsiyaning bosh maydoniga o'rnatilgan, baxaybat «David» haykali "zamonaviy antik grek va rim haykallari barchasining shon-shuxratini olib qo'ya olgan asardir". Mikelandjelo bu asarida tabiatning eng go'zal mo''jizasi - bu odam qomati ekanligini, uning takrorlanmas go'zalligini, kuch -qudratini ifoda etishga erishgan.

"Injil" rivoyatlarida hudo tomonidan Odam Atoni loydan birinchi bo'lib yaratilgan degan fikrga asoslanib, Mikelandjelo haykaltaroshlik san'atini "San'atning birinchisidir" deb tushunadi. Shu sababli ham o'zini haykaltarosh deb xisoblar edi. Lekin

rangtasvir san'atida ham u o'z zamondoshlaridan o'zib ketgandi. Papa Yuliy II

buyurtmasiga asosan u Vatikanda Sikstin kopellasida 10 may 1508 yildan, 5 sentyabr 1512 yilgacha 4 yil mobaynida devoriy suratlar yaratgan.

Uning 1513 - 1516 yillarda yaratgan «Zanjirband qul», «O'layotgan qul» (1513 y. Parij, Luvr), «Moisey» (1515 y. Rim, San'atshunoslik Petro in Vinvoli), «Madonna Medichi» (1521-34 y. Florentsiya, San'atshunoslik Lorentso), «Lorentso de Medichi» (1525), «Juloano de Medichi» (1526-34 y. Florentsiya, San'atshunoslik Lorentso), «Gerkules - Samson» (1525 y. Florentsiya, Buonarotti muzeyi), «David - Apollon» (1525-30 y. Florentsiya, Barjello milliy muzeyi) kabi ko'plab asarlari bizgacha etib kelgan. Uning ijodi o'z davrida va o'zidan keyingi davr san'atkorlariga xam kuchli ta'sir qilgan.

Mikelanjelo 18 fevral 1564 yilda umrining 89 yoshida uzoq davom etgan kasallikdan so'ng olamdan o'tadi. Rimliklar buyuk xaykaltaroshni o'z shaharlarida qoldirishni xohlashsa-da, biroq Florentsiya xokimi Gertsog Kozimo xohishiga ko'ra uni agentlari Miklanjeloning jiyani bilan birgalikda, maxsulot solingan qoplar ko'rinishida uning jasadini Florentsiyaga olib kelishadi va Santa Krochi ibodatxonasiga tantanali ravishda dafn etishadi.

O'rta Osiyo haykaltaroshligi

Uyg'onish Ajdodlarimiz tarixi bizdan qanchalik uzoq va ularning diniy e'tiqodlari o'zgacha bo'lganligidan qat'iy nazar, biz bilan olis o'tmishni bog'lab turadigan nozik jixatlari bor. Shulardan biri ajdodlarimiz yaratgan ajoyib san'at namunalaridir.

Qadimgi odamlar turli dinlarga e'tiqod qilishgan va o'z e'tiqodlarini iloxiylashtirish maqsadida haykallar yaratishgan. Ayniqsa, ana shu haykallarda afsonaviy haykallarga xos ramziy obrazlar o'z ifodasini topgan. O'tmish san'ati namunalarida hayotning barcha qirralari gavdalantirilgan. Kiyim-kechaklarga, Shuningdek, uy jixozlaridagi tasvirlarda ham shunday namunalarni kuzatamiz. Bizgacha saqlanib qolgan namunalarga esa loydan, tosh, yog'och, marmar, fil suyaklaridan ishlangan. Odamlar haykallarga va boshka tasvirlarga o'z dunyoqarashlari, e'tiqodlarini jo qolishga intilganlar.

Ajdodlarimizning miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmiga kelib Axmoniyalar bosqinchiligiga duch kelish va shu davrdagi Naqshi Rostam, Buxstun, tasviri yozuvlari paydo bo'lishi ham Eron va Markaziy Osiyo xalqlari san'ati bilan bog'liq namunalarni vujudga kelishiga sababchi bo'lgan. Shuning uchun ham tasviri san'atning axmoniyalar davriga oid namunalarni qadimgi eronliklarning markaziy shahri Persepolis va uning atrofidagi yodgorliklarda uchratamiz.



Bu o'rinda tarixchi B.Axmedovning fikrlari diqqatga sazovordir. «Ayniqsa Persepoledan (Sherozning shimoliy tarafidan taxminan 50 km olislikda joylashgan, 520-450 yillar orasida qurilgan) topilgan yozuvlar va tasviri suratlar (releflar) zo'r ilmiy qimmatga ega.


Tasviri san'at asarlarining ijtimoiy ahamiyati va mavqei aloxida diqqatga sazovor. Chunonchi Afrosiyob Sarq o'tmishining madaniy markazlaridan biri bo'lib, ko'pgina halqlarga hos an'analarni o'zida aks ettiruvchi san'at

namunalariga maskandir. Afrosiyobdan topilgan xaykallar, devoriy suratlar ana shular xaqida hikoya kiladi. Afrosiyobda shahar hayotining rivojlanishi Sug'd, Movurounnaxr va Maraziy Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy hayotning yuksalishi hamda inqirozi bilan muvofiq tarzda kechgan, Chunki Samarqand o'sha davr mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarning muhim markazi edi. O'rta Er dengizi bo'yi va yaqin Sarq mamlakatlarining Eron orqali Uzoq Sarq, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Xindiston, Sirdaryoning quyi oqimidagi shaharlarga, u erdan esa Sibir va Sarqiy Evropa mamalakatlariga diplomatik savdo va madaniy aloqalarning asosiy yo'llari Samarqanddan o'tgan. Samarqand jahon savdo va madaniy markazlaridan biri sifatida o'z mavqeini to'la darajada, lekin uzilishlar bilan o'rta asrlarda ham saqlab qoldi», deb ta'kidlanadi. Samarqand tarixi kitobida, Qadimgi Sug'd san'ati ham o'tmishni yanada mazmunli va aniqroq tasavvur qilishimizga yordam beradi.

Iskandar izi bo'ylab shakllangan tasviriy san'at tarixi o'lkamiz xududida o'zining qimmatli namunalarini qoldirgan. Miloddan avvalgi 329-327 yillarda Iskandar qushinlari Markaziy Osiyo xududlarini makkorlik va hiyla bilan bosib olganligi tarixdan ma'lum.

Iskandar Yunonistondan Markaziy Osiyoga kelgunga qadar ko'plab xalqlarni bosib olganda o'sha erlarda Yunon tili, madaniyati va dinini targ'ib qilingan. Natijada ellinlashtirish (Yunonlashtirish) vujudga kelgan. Ammo, Yunonistonning tasviriy san'ati, me'morchiligi boshqa xalqlarga nisbatan antik dunyoda yuqori darajada bo'lganligini ta'kidlamoq kerak. Mahalliy xalqlar tasviriy - amaliy san'ati bilan ellinlar san'ati o'rtasida uygunlashuv boshlangan. Bu uyg'unlashuv uzoq davom etib, ellinlarga xos haykaltaroshlik, me'morchilik paydo bo'la boshlagan. Bunday tasviriy va amaliy san'at namunalarini O'zbekistonning o'nlab qadimiy shahar xarobalaridan topilayotganligi diqqatga sazovordir. Afrosiyob xarobasidan Iskandar davriga oid haykal va tangalar, kulolchilik buyumlari topilgani ham fikrimizning dalilidir. Turli tasvir va shakllar zarb etilgan tanga va taqinchoqlar o'sha zamon noyob ashyolaridir. Sirtiga Artemida (Yunon mifologiyasida ta'riflanishicha Zevs va Letonning qizi, noz-ne'mat xudosi,

hayvonot va ovchilik homiysi, Rimliklar uni Diona nomi bilan atashadi) tasviri tushirilgan gemmadagi rasm ham ellenlar davri namunalariga kiradi. Shuningdek, ayni paytda O'zbekiston xalklari tarixiy muzeyida saqlanayotgan qadimgi kumush (tetradraxma) dagi relief tasvirlar, aloxida e'tiborga molikdir. Bu Aleksandr Makedonskiyning tetradraxmasi (tanga puli) bo'lib, uning o'ng tomonida bosh qiyofasi o'ng tomonga burilib ishlangan shoh tasviri mavjud. Ikkinchi (teskari) tomonida esa o'ng qo'li uzatilgan holatda qush tutib taxtda o'tirgan Zevs aks ettirilgan.



Mahalliy ustalar va rassomlar yasagan kulolchilik buyumlarida, tanga va taqinchoqlarda, turli ko'rinishdagi haykallarda ham ellinistik an'analar alomatlari mavjud. Zotan, Yunoniston tasviriy san'ati yutuqlari ko'proq haykallarda, zarb etilgan tangalar va taqinchoklarda o'zini namoyon qiladi. Bu haykallar ishlanishi va mazmuniga ko'ra Yunonlarga hos tasvirlarni o'zida aks ettiradi. Bu san'at ashyolari maxalliy xalq bilan Yunonlar o'rtasidagi yashash tarzining tobora uyg'unlashib borganligini ko'rsatadi. Markaziy Osiyo jumladan O'zbekiston

san'ati tarixida ellenlar va maxalliy xalq san'atining uyg'unlashuvi esa o'ziga hos yangi bosqich bo'ldi.

Iskandar vafotidan so'ng tashkil topgan davlatlar tuzumi bilan bog'liq ravishda o'tmish tasviriy san'at taraqqiyotining o'ziga hos qarashlari namoyon bo'la boshladi. O'sha davrda Markaziy Osiyo, jumladan hozirgi O'zbekiston Salavkiylar davlati tarkibida bo'lganligi tarixdan ma'lum. Bu davr xaqida saqlanib qolgan haykallar, amaliy bezak san'atidagi tasvirlardan ham tasavvur hosil qilishimiz mumkin.

Tasviriy san'atning xaykaltaroshlik turi Yunon - Bakriya va qadimgi Xorazm davlatlari davrida taraqqiy etibgina qolmasdan, goho san'atning boshqa turiga etakchilik vazifasini ham o'tagan.

O'zbekiston Badiiy akademiyasining San'atshunoslik instituti xodimlari tomonidan Dalvarzintepada arxeologik qazishmalarni olib borish jarayonida topilgan 115 dona oltindan ishlangan ashyolar Baktriya davri ustalarining mahoratidan darak beradi. Qadimgi Xorazm tarixini chuqur o'rgangan olim S.P.Tolstov Jonbos kal'ani «Haykallar muzeyi, Tuproqqal'ani esa «Tangalar muzeyi» deb bejiz atamagan.

Haykaltaroshlik qadimgi Farg'ona, Kang davlatida ham keng ko'lamda rivojlangan. Buyuk ipak yo'lining ta'siri o'tmish tasviriy san'atiga ham ta'siri katta bo'lgan. Buyuk ipak yo'lining halklar o'rtasidagi san'ati uyg'unlashuviga ta'sir o'tkazganini Kushonlar davri misolida yanada yaqqolroq ko'ramiz. Darxaqiqat, O'zbekiston tasviriy san'ati tarixining katta bir qismi kushonlar davri bilan chambarchas bog'liqdir. Bu davrda qadimgi xalqlarning turlicha dunyoqarashlari tasviriy san'at asarlarida o'z aksini topgan. Bularning birida buddizmga xos belgilar aks ettirilgan bo'lsa, ikkinchi bir namunalarida Zardushtiylar e'tiqodi ramzlarini ilg'aymiz. Kushonlar davri san'atning xilma-xilligi bu imperiya juda katta xududni, ko'p xalqlarni birlashtirganligi bilan ham izoxlanadi. Kushonlar davrida madaniyat va san'at yuksak pog'onaga ko'tarilgan.

Haykaltaroshlik san'atidagi barcha talab va qonuniyatlarga javob bera oladigan, qiyomiga etkazib ishlangan haykallarning bir turkumi Xalchayonda

topilgan. Milloddan avvalgi I-asrga oid xarbiy kishining bosh qiyofasi tasvirlangan haykallarda bunday jihatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'lumki, inson gavdasining bosh qismini yasash o'ta murakkab jarayondir. Ikki ming yil muqaddam ishlangan bu haykalda bosh skeletning tuzilishi aniq amalga oshirilganining guvohi bo'lish mumkin. Yuz qiyofasidagi, peshona, burun, ko'z, lab kabi a'zolarining shakillari me'yoriga etkazilib ishlanganligidan haykaltarosh mahorat va malakaga ega ekanligi ko'rinib turibdi.



San'atshunos N.Oydinovning tadqiqotlarida O'rta Osiyo haykaltaroshligiga oid bir qator qimmatli ma'lumotlar berilgan bo'lib, uning yozilishiga atoqli olim G.A.Pugachenkov tomonidan olib borilgan chuqur o'rganishlar Surxondaryoning Denov tumanidagi Xalchayon madaniy yodgorligidan topilgan haykallarning ko'pchilik qismida buddizm alomatlarini borligini

va o'sha davrda buddaga e'tikod qilganligidan dalolat beradi.

Amudaryoning eng tor joyi Afgonistonning xozirgi Xayriton shahridir. Daryoning bu beti esa Ayritom deb ataladi. Ilk bor buddaga oid haykaltaroshlik namunalari ana shu Ayritomdan 1932 yili chegarachilar tomonidan tasodifan topib olingan. Bu haykallarda musiqa asboblari ushlagan uch odam tasviri aks ettirilgan. U erda arxeolog olim M.E.Masson 1933 yili tadqiqot ishlarini olib borib bir qancha haykallarni topishga muvaffak bo'lgan. Ayniqsa, bulardan qo'shnay chalib turgan, ikkita lanakni bir-biriga urib turgan, gulchambar ushlab turgan haykallarni misol keltirish mumkin.

Qadimgi tasviriy san'at va buddaga oid diqqatga sazovor inshootlardan yana biri Qoratepa yodgorligidir. Bu erdan topilgan tasviriy san'at namunalarida dinning o'ziga xos xususiyatlari yorqinroq mujassamlashtirilgan. Shuningdek,

Fayoztepadan haykal o'rnatiladigan stuli topilgan. Ayni paytda San'atshunoslik institutida saqlanayotgan, Dalvarzintepadan topilgan miloddan avvalgi I-asrga mansub Devatto (buddapersonaji) boshi hamda Termizdan 30 km g'arbda joylashgan Kampirtepa yodgorligidan topilgan Buddaning haykallari har tomonlama me'yoriga etkazib ishlangan san'at asarlaridir. Bu haykallarni badiiy va anatomik jihatdan taxlil qilib, uni yaratgan kishiga qoyil qolsa arziydi. Bir qarashda nafis va nozik xislatlar ifodalangan yuz qiyofasini astoydil kuzatsak, ichki ruxiy kechinmalar bilan burkangan jiddiy bu salobatli obraz ko'z oldimizda gavdalanadi. Devatto boshi haykalida sochlaridagi jingalak tasvirlar asarning go'zalligini boyitibgina qolmasdan, ma'naviy va psixologik jihatlarini o'zida yaratib turgandek tuyuladi.

Kampirtepadan topilgan Budda haykalining bejirim qiyofasida esa o'ychanlik va donishmandlik mahorat bilan tasvirlanganligi haykaltaroshning kuchli mahoratga ega ekanligidan dalolat beradi. So'z haykalning ishlanish uslubidagi yutuqlar xaqida ketar ekan, insonning bosh qismi tasvirlangan bu asarlar kalla suyagining anatomik tuzilishi jihatlariga javob bera olishini aniqlab ko'rish maqsadga muvofikdir. Ma'lumki, rassom va haykaltaroshlar inson bosh qismining konstruktiv asosi - kalla suyagi (cherp) ni mukammal urganib chiqadilar. Kalla suyagi ikki qismga ya'ni bosh qism va yuz qismiga bo'linadi. Shunga ko'ra haykaltarosh portret ishlash jarayonida ma'lum qonun-qoidalarga rioya qiladi. Kampirtepadan topilgan «Budda» va Dalvarzintepadagi «Devatto boshi» haykallarida bunday xususiyatlarga to'la amal qilinganiga guvoh bo'lamiz. Yuz qismiga tegishli ko'z, burun, lab, quloq va yonoqlardagi o'ziga xos shakllar hamda holatlar proportsional muvozzannatlarga, simmetriya qoidalariga javob berishi bilan birgalikda aniq, sodda qilib ishlangan. Shuningdek peshona do'mbog'i, boshning tepa, orqa (miya) qismi, ensa kabi qismlari ham anatomik tuzilishga ko'ra to'g'ri topilgan va bajarilgan. Bunday san'at asarlari sirasiga Fayoztepadan topilgan Budda yoki Budda safdoshining bosh qismi, Dalvarzin tepadan topilgan boshiga toj kiygan Kushon shaxzodasi va boshka o'nlab haykallarni misol keltirish mumkin.

Arxeolog olimlar fikricha, son-sanoksiz haykal siniqlari bilan to'la Dalvarzintepa qadimgi Kushon podsholigining markazi bo'lgan. Buddaga oid haykaltaroshlik namunalari Tojikistonning Ajinatepa, Shto'rtepa, Turkmanistonning g'arbiy chegarasi Bayramalidagi Sulton qal'asi ichidan ham topilgan. Ammo bu san'at asarlari orasida O'zbekistonning janubidan topilgan haykallar xar jixatdan qimmatga ega.

Umuman, o'lkamiz xududidan topilgan haykaltaroshlik namunalari turli g'oya va mazmunlarga, rang-barang ko'rinishlarga ega. Ana shunday alohida xususiyat ko'rinishlar aks ettirgan san'at namunalaridan biri Samarqand Afrosiyobidan topilgan VII-VIII asrlarga mansub ostodon qopqog'iga ishlangan odamning bosh qismi haykalidir. Qiziqarli tomoni shundaki, haykalning yuz tuzilishida o'zbek xalqining afsonaviy qaxramoni Nasriddin Afandi qiyofasiga xos nimalarnidir eslatuvchi jixatlari bor. Haykaltarosh jiddiy izlanish uslubiga ega bo'lishi bilan mahalliy xalqqa xos obrazni nihoyatda xarakterli ifodalay olishga muvaffaq bo'lgan. Shuningdek, Samarqandning Tayloq degan joyidan topilgan ostodon qopqog'iga ishlangan ayol boshi haykal tasviri Varaxshadan topilgan (VI-VII asrlar) ayol qomatining yarmidan ko'proq qismi tasvirlangan haykallar shunday milliy an'analarni o'zida namoyon qiladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, O'rta Osiyoda Buddizmning tarqalishi haykaltaroshlik san'atining rivojlanishiga imkoniyat yaratib o'lkamizda eramiz boshlarida haykaltaroshlik ancha yaxshi rivoj topgan degan fikrini ayta olamiz. Biroq, VII-VIII asrlardan boshlab O'rta Osiyoning Arablar tomonidan bosib olinishi bilan maxalliy xalq tasviriy san'atini bir necha tur va janrlarini ta'qiqlab quyiladi. Shulardan biri haykaltaroshlik san'ati ham mutloq ta'qiqlangan edi. Chunki Islom dini talablariga ko'ra jonli narsalarni tasvirlash, ayniqsa, odam qomatini (haykalini) tasvirlash mumkin emas edi. Shu sababli O'rta Osiyoni ruslar tomonidan bosib olinishiga qadar O'zbekistonda tasviriy san'atning portret, animalistik janrlari va haykaltaroshlik turi bilan xech kim shug'ullanmay qo'ygan edi.

O'zbekistonda XIX asr oxirlaridagina haykaltaroshlik asta-sekin ko'rina boshladi. Haykaltaroshlik Knyaz Romanov saroyi (Toshkent) oldiga o'rnatilgan hayvonlar haykali (it, kiyik), Moxi-Xosa (Buxoro) eshigi oldiga sherlar haykali O'rta Osiyodagi dastlabki haykaltaroshlik yodgorliklaridandir. Chunki arab bosqinidan so'ng (VIII asr) bu erlarda, umuman musulmon Sarqida yuqorida ta'kidlaganimizdek, haykaltaroshlikning deyarli hamma turlari to'xtatilgan edi. XIX asr oxirlaridan esa shu sohada ijod qilishga intilish paydo bo'la boshladi. XIX asr o'rtalaridan Markaziy Osiyoga kela boshlagan xorijlik rassom va haykaltaroshlar 40dan ortiq bo'lib, ularning ayrimlari keyinchalik Markaziy Osiyo xududida jumladan, O'zbekistonda butunlay qolib, uni o'zlarining ikkinchi vatanlariga aylantirdilar, shu erda murabbiylik kilib, Evropaga san'at asarlarini maxalliy yoshlarga o'rgatdilar. XIX asrning o'rtalaridan boshlab O'zbekistonda bo'lgan rassomlar ichida rus rassomlari V.V.Vereshagin, N.N. Karazin, D.Veletev, Dmitriy Kavkazskiy, R.Zommer, O. Fedchenko, xaykaltarosh O.Mikeshin va boshqalar bor edi.

1.2 Haykaltaroshlik mashg'ulotlari o'tkaziladigan xonani jihozlash

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarining asosiy maqsadi - o'quvchilarning qiziqishlarini kuchaytirish va ularning badiiy didini, san'atga bo'lgan muhabbatini tarbiyalashdan iboratdir. Shuningdek o'quvchilarning turli asbob-uskunalar bilan ishlash hamda turli xildagi materiallardan o'rinli foydalana bilish malakasini, olingan nazariy bilim va ko'nikmalarni amaliyotga tadbqiq eta olish kabi sifatlarni shakllantirish nazarda tutiladi. Xonaning xajmi 30-40m bo'lib tabiiy va elektr asboblari yordamida yoritilishi etarli miqdorda bo'lishi zarur. Mashg'ulot davomida va keyinchalik ishlatiladigan materiallar gips, loy, plastelin, shamot va boshqalarni saqlash uchun qo'shimcha xona yoki erto'lali xona talab etiladi.

Mashg'ulotlar o'tkaziladigan xonadagi elektr yoritgichlarning nuri ish bajarayotgan o'quvchilarning orqa tomonidan 45 gradus burchak ostida tushishi lozim. Xonadagi loyni muntazam ishlatish uchun vannada yoki maxsus idishda nam holatida (ustini plyonka bilan o'rab) saqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.


O'quvchilarning ishlari deyarli kichik xajmda loy yoki plastelindan ishlanishini hisobga olib, ishlarni shkafda, stelajlarda saqlash mumkin. Haykaltaroshlik dastgohlari turli o'lchamlarda yog'ochdan qo'lda tayyorlanishi yoki zavodda tayyorlangan dastgohlar (stanok) bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Kichik hajmdagi figura uchun 0,80-1,30 sm gacha, byustlar uchun 60 sm dan 100 sm gacha bo'lishi mumkin.




Ish jarayonida ishlanayotgan ob'ekt bilan dastgohdagi ish o'quvchilarning ko'zi bilan bir xil balandlikda bo'lishi, o'quvchilarga ob'ektni va o'z ishini bir xilda ko'rish va kuzatishga imkon beradi.

Yog'ochdan tayyorlangan dastgohlarni loy bilan ishlaganda ularning namlikdan chirishini oldini olish uchun plastiklar solib ishlatish lozim.

Plastelindan yoki loydan



ishlangan ishlarning balandligi 10-15 sm dan oshadigan bo'lsa, ularning ichiga o'rnatish uchun sim yoki temirdan «karkas» lar o'rnatiladi. Bu karkaslar yasalgan haykalchani yoki uning



muayyan qismini ma'lum bir harakatda, muvozanat nuqtasidan og'ma holatda tasvirlashimkonini beradi. Masalan, odam boshini loydan ishlash uchun eni 10 sm qalinligi 2-3 sm bo'lgan 3-4 ta taxtachani bir-biriga biriktirib, uning ustiga yogoch sterjen tik xolatda maxkamlanadi. Yuz qismida loyning ko'p qo'yilishi tufayli og'irligi ortib, ag'darilib ketmasligi uchun yog'och sterjenni taxtachaning ustiga yaxshilab mustaxkamlash kerak bo'ladi. Loyning namligi ortib, tushib ketmasligi uchun sterjenning uchiga plyus qilib loyni simga bog'langan yog'ochlarni qo'shimcha osish lozim.

Qabariq haykallarni, ya'ni releflarni ishlash uchun karkas quyidagicha tayyorlanadi: 5-6 ta bir xil o'lchamga, bir xil qalinlikka ega bo'lgan taxtachalarni bir-biriga mixlanadi va chetiga «ramka» beriladi. Loy tushib ketmasligi uchun uning ichiga qalpoqchali mixlar yoki uncha uzun bo'lmagan reykachalar qoqiladi. Relif uchun tayyorlangan karkas katta xajmda bo'lsa devorga, kichikrok bo'lsa, dastgoh yoki stolga o'rnatiladi.

Karkaslarga loyni yopishtirish, mustaxkamlash uni yog'ochdan tayyorlangan bolg'achalardan, ayrim hollarda turtburchak reykalaridan foydalanish o'rinli hisoblanadi. Bolg'achalar qarag'oy, urik, yong'oq, chinordan tayyorlanadi. Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida plastelin, loydan haykallar yasash uchun qattiq yogoch va simdan tayyorlangan steyklar ishlatiladi. Ulardan ortiqcha loyni olish hamda kichik va nozik detallarni ishlash uchun foydalaniladi. Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar ko'proq steyklar bilan emas, qo'l barmoqlari bilan ishlashga o'rganishlari lozim, Chunki qo'l bu faoliyatda asosiy vazifani bajaradi va talabalarda hajm, harakatni his etish, uni tasvirlay olish malakalarini shakllantirida muhim omil hisoblanadi.

II. BOB O'ZBEKISTON HAYKALTAROSHLIGINING YANGICHA KO'RINISHLARI

2.1 Mustaqillik yillari O'zbekiston haykaltaroshligi

Haykaltaroshlarning ijodiy uslublari 60-80 yillar an'analaridan keskin farqlanmay tursa ham, o'zbek xalqining tarixini va madaniy me'rosini haykaltaroshlar chuqur o'rganib, badiiy jarayonda ulug' ajdodlarimiz qiyofalarini yaratishga muvaffaq bo'lishdi. Buyuk vatandoshlarimiz - Imom Buxoriy, at Termiziy, Xoja Baxouddin Naqshbandiy, Imom Moturidiy, Burxoniddin Marg'iloniylarning nomlari qayta tiklanmoqda. Utmishning buyuk mutafakkirlari, shoirlari va musavvirlari-Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muxammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Axmad Farg'oniy, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Muxammad Marod Samarqandiy, Zaxriddin Muxammad Bobur hamda jadidchilik xarakati vakillarining nomlari g'urur bilan tilga olinmoqda. Ularning sharafiga yodgorlik majmualari qurilib, kitoblar chop etilmokda.

Mustaqillik davri haykaltaroshlik san'atining mahobatli turida ishlangan ilk tarixiy asarlar sifatida Chirchiq shahrining markaziy shox ko'chasida va poytaxtimizning Milliy bog'ida o'rnatilgan ulug' shoir Alisher Navoiy obraziga atalgan yodgorliklarni (E.Aliev, N.Bandeladze, V.Degtyarov, 1991 y.), 2001 yilda Navoiy shahri markazida ulug' shoirning 560 yilligi munosabati bilan A.Raxmatullaev va P.Podosinnikov tomonidan yaratilgan A.Navoiy haykali, Toshkent shahrining gavjum xiyoboni markaziga o'rnatilgan. A.Temurning mahobatli otliq haykali (I.Jabborov, K.Jabborov, 1993 y.), Sohibkironning ona yurti Shaxrisabz va markazlashgan davlatning poytaxti Samarqand shahrida o'rnatilgan Amir Temurning mahobatli haykallari (I.Jabborov, K.Jabborov 1996 y), Farg'ona va Quva shaharlarida o'rnatilgan Axmad Al - Farg'oniyni mahobatli haykallari (I.Jabborov, K.Jabborov 1998 y), Xorazmda Jaloliddin Manguberdi yodgorligi (I.Jabborov 1998 y), Andijon shahriga o'rnatilgan «Zaxriddin Muxammad Bobur» (R.Mirtojiyev 1993 y), Toshkent shahriga o'rnatilgan «Abdulla Qodiriy» (R.Mirtojiyev 1994 y). Andijon shahriga o'rnatilgan «Cho'lpon»

(R.Mirtojiyev 1997 y), Termiz shahrida bunyod etilgan epik qaxramon Alpomishning ramziy haykali (A.Raxmatullaev, K.Norxo'rozov, U.Mardiev, P.Podosinnikov), Namangan shahrida bunyod etilgan «Zaxriddin Muxammad Bobur» (M.Raxmonberdiev 1998 y) haykallarini qayd etish joizdir.

Dastgohli haykaltaroshlik san'atida zamonaviy va milliy an'analar o'zaro uyg'unlashtirildi. Bu davr dastgohli haykaltaroshlik san'atining o'ziga xosligini yana bir ko'rinishi, realizm an'alarining amaldan surib chiqarilishi va badiiy ifodaviylikning etakchiligida bo'ldi. Akademizm uslubiyoti faqat badiiy ta'lim jarayonidagina saqlanib qoldi. Bu davrda dastgohli haykaltaroshlik san'ati vakillari tomonidan T.Tojixujayevning «Ilon izi», «Kurash», «Raqs», «Chavandoz», D.Ruziboyevning «Navro'z malikasi», «Navro'z», J.Quttimurodovning «Ayol», «O'tirgan soxibjamol», «Amudaryo», «Oqqush», «Shohli Iskandar», R.Mirtojiyevning «Sayyox», «Bobur», «Temur Malik», «Yomg'ir», «Behzod», A.Xotamovning «Suvchilar» E.Esonovning «Amir Temur», S.Sharipovning «Xattotlik» kabi ko'plab asarlari yaratildi.

Istiqlol davri haykaltaroshligining yaqqol namoyondalaridan I.Jabborov, K.Jabborov, A.Aliyev, A.Raxmatullaev, N.Bondiladze. V.Degtyarov, R.Mirtojiyev, P.Podosinnikov, A.Ryabtsev, P.Axmedzyanov, Sh.Usmonov, K.Norxurozov, D.Ruziboyev, T.Tojixujayev, J.Quttimurodov, U.Mardiev kabi bir qator ijodkorlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Bu davr haykaltaroshligida milliy mafkuraga asoslangan mavzular va qisman yangi badiiy shakllar kashf etilganligini xam e'tirof etish lozim.

Bugungi kunda haykaltaroshlik mustaqillik munosabati bilan o'zining chinakam rivojiga kirib, o'zbek haykaltaroshlari xalqimizning tarixini, bugungi kunini ro'y-rost, haqqoniy ifoda etib, xalqimizning milliy istiqlolini baralla kuylamokdalar. Shuningdek, O'zbekiston haykaltaroshlik san'ati o'zining zafarli istiqbolli kelajagini ham belgilab bormoqda.



Haykaltaroshlik turlari

Haykaltaroshlik tasviriy san'atning asosiy turlaridan biri. Bu san'atda borliq yorug' - soyaga ega bo'lgan shakllar orqali makonda tasvirlanadi hamda ularning uch o'lchovli xajmli - fazoviy xolati faqat shu san'at turi orqaligina aks ettira olinadi.

Haykaltaroshlik Lotincha - sculptura so'zidan olingan bo'lib «kesmoq», «yo'nmoq» ma'nosini anglatadi. Ayrim hollarda haykaltaroshlik o'rniga «plastika» so'zini aytishadi yoki yozishadi. Bu so'zlar bir-biriga juda yaqin ma'noda bo'lsa-da,

grekcha plastike so'ziga nisbatan «haykaltaroshlik» so'zi aniq bir atama hisoblanadi. Haykaltaroshlikda asosan tirik jonzodlarni, odamlar, hayvonlar, odamlarning hayotiy va ichki kechinmalarini, go'zalligini, tarixiy shaxslarni,



buyuk siymolarni, fan arboblarni, bugungi kunning ijodkorlarini va mehnatkash halqning asl farzandlari obrazlarini turli xildagi materiallarda ifoda etiladi, shuning uchun ham bu asarlar asrlar davomida yashaydi.

San'at va go'zallik tarbiyasi o'quvchilarning estetik didi va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga, mehnatga ijodiy yondashish hislatlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Haykaltaroshlik san'ati insonning uyg'un tarbiya topishiga zamin yaratadi. Haykaltaroshlikda g'oya, tuyg'u va fikr plastik

gavda xarakati tilida beriladi. Odatda haykaltaroshlik asarlari o'z ko'rinishiga qarab, dumaloq va qabarik (relief) haykallarga bo'linadi. Dumaloq haykallarni


hamma tomondan aylanib ko'rish mumkin bo'ladi. Masalan, maydon va xiyobonlardagi haykal va yodgorliklar, stol ustiga qo'yiladigan har xil haykalchalar shu turga mansubdir, haykaltaroshlikning ikkinchi ko'rinishi bo'lgan bo'rtma yoki qavariq qaykallar biror yuzaga bo'rttirib ishlangan bo'ladi. Bunday haykallar bir so'z bilan relef deb ataladi.

Haykaltaroshlikda deyarli rang ishlatilmaydi. Haykallar rangini asosan haykal uchun tanlangan material (masalan, marmar, granit, bronza va hokazo) belgilaydi. Ba'zan halk haykaltaroshligida haykallarni bo'yash hollari ham uchraydi.

Haykaltaroshlik asarlari ham san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab, qator tur va janrlarga bo'linadi. Haykaltaroshlik turlari deganda, mahobatli (monumental) haykaltaroshlik, mahobatli - bezakli (monumental dekorativ) va dastgoh haykaltaroshligini tushunamiz.

Mahobatli haykallar muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatiladi. Odatda mahobatli haykaltaroshlik asarlari o'zida katta mazmunni anglatib, u bevosita muhit bilan bog'lanadi, me'morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg'unlikda bo'lishi talab etiladi. Bu esa unga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Misol tariqasida Toshkent shahridagi

«Amir Temur» haykalini ko'rishimiz mumkin.



Mahobatli haykaltaroshlik asarlari ochiq xavoda turishi sababli, uzoq turadigan mustaxkam qattiq materiallardan: tosh, granit, marmar, bronza va boshqa turli materiallardan yasaladi. Mahobatli haykaltaroshlik asarlari uzokdan ko'rishga mo'ljallanganligi sababli, katta-katta, yaxlit shakllardan keng foydalaniladi. Odam yuzidagi mayda detallar, kiyimidagi buklanishlar, undagi

mayda detallar deyarli ko'rsatilmaydi.



Istiroxat bog'lari, xiyobonlar, ko'cha va parklar, Shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallar mahobatli-bezakli haykaltaroshlik asarlari bo'lib, bevosita o'sha borliq bilan bog'liq bo'ladi va ularning mazmunini yanada to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvonlar shakli ham keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan turli qabariq tasvirlar amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar ham bezak haykallariga kiradi. Turli favorralar, panjaralar, ramziy darvozalar, chinnidan yasalgan turli haykallar loydan ishlangan o'yinchoqlar ham shu janr ko'rinishlari xisoblanadi.

Dastgoh haykaltaroshligiga o'zida mustaqil fikrni, g'oyani anglatadigan san'atning boshqa turiga tobe bo'lmagan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko'rgazmalar, muzeylarga qo'yish, intererlarga o'rnatish uchun mo'ljallangan bo'ladi va bu turda voqelik o'zining butun borlig'i bilan aks etadi. Inson psixologiyasidagi nozik o'zgarishlar, uning ruhiy kechinma va kayfiyati ham shu turdagi haykallarda ochib beriladi.

Haykaltaroshlikda ijodkor yorug'-soyalar o'yinidan foydalanish orqali o'z haykallarini ta'sirli va jozibali bo'lishiga erishadi. Haykal yorug'-soya bilan tirik, ya'ni nur tushishi bilan u ham jonlanadi, yorug'likning o'zgarishi bilan undagi yorug'-soya tovlanishi ham o'zgaradi, natijada, undan tomoshabin oladigan ta'surot ham o'zgarib boradi. Bu narsa ayniqsa, mahobatli va mahobatli-bezakli haykallar uchun juda qo'l keladi. Chunki maydon yoki xiyobonga o'rnatilgan haykal ertalabki tong quyoshining nurlari bir joziba bersa, kechki kun botish paytidagi quyosh nurlari boshqacha bir fayz kiritadi. Tungi oy nurlarida shu

haykalning o'zi yana bir go'zallik kashf etadi. Shuning uchun ham haykaltaroshlik asarlari turli paytda kishida turlicha ta'surot qoldiradi. Haykaltaroshlikda insonning faqat tashhi ko'rinishi, tinch turgan xolati yoki xarakatdagi paytini aks ettirish bilan uning imkoniyatlari tugamaydi. Uning xayajon va g'amginligi, kelajakka intilishi va o'tmishga qayg'urishi ham o'z ifodasini topadi. Haykaltaroshlik asarlarida insonning tevarak-atrofga bo'lgan munosabati ham qalbidagi iztirob ham ishonarli talqin etilishi mumkin. Bunda eng avvalo haykaltaroshning o'ta ziyrakligi, odam gavdasi va mimik o'zgarishlarni to'g'ri ifodalashi muhim o'rinni egallaydi. To'g'ri topilgan xarakat, yuzdagi mimik holat - bular uning ta'sirli bo'lishiga zamin tayyorlaydi. Shuning uchun ham dastgohli haykaltaroshlik asari haqida tomoshabin bilan «suxbat ko'ra oladi» - deyiladi.



Bu xususiyat tanga, znachok, medal yuzalaridagi bo'rtma tasvirlarda ko'rinadi. Barelef ayniqsa, amaliy san'at buyumlarini va me'morchilik binolarini bezashda juda qo'l keladi. Qadimgi Yunonliklar maishiy hayotda ishlatiladigan turli xil buyumlar: ko'za, guldon, qurol-aslaxalarni Bareleflar bilan bezaganlar, binolarning devorlarini turli hayotiy voqealarni aks ettiruvchi bo'rtma tasvirlar bilan go'zallashtirganlar. Xozirgi kunda ham binolarni bezashda barelefdan keng foydalanilmoqda. Bunga misol qilib Toshkent metropoliteni bekatlaridagi haykaltaroshlik ishlarini ko'rsatish mumkin. «Gorelef» ham frantsuzcha so'z bo'lib «hout - relief» yuqori relief ma'nosini bildiradi.

2.2 Bir yodgorlik tarixi: Amir Temurning otliq haykali

O'zbekiston – madaniyati boy qadimiy mamlakatdir. O'rta Osiyodagi hech bir respublika O'zbekiston singari qadim madaniyat va moziyning ko'p sonli yodgorliklariga ega emas. Respublikamiz zamini – bu insoniyat paydo bo'lganidan, to yirik davlatlar tashkil topgangacha bo'lgan turli davrlarning ajoyib tarixiy yodgorliklarini saqlab kelayotgan o'ziga xos qimmatbaho zahiradir. Toshkentning Amir Temur xiyobonida qad ko'targan Amir Temur haykali haykaltaroshlikning tengsiz namunalaridan biri ekanligi shubhasiz. Amir Temur nomidagi xiyobon — shaharning alohida belgilangan maydoni, boshlang'ich koordinatasi timsolidir. Madaniyat, san'at, fanning alohida gullagan payti o'sha davr bilan belgilanadi.



Amir Temur haykali

Yodgorlik haqida gapirishdan oldin mazkur xiyobonning yaratilish tarixiga, chavandoz haykaligacha qanday yodgorliklar bo'lganligiga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Xiyobon daraxtlari shox-shabballari ostida qo'p voqealar bo'lib o'tdi. Mazkur xiyobonda dastlab 1882-yil Toshkentda vafot etgan general-

gubernator Konstantin Kaufman qabri joylashgan edi. O'tgan asr boshlarida bu yerda Konstantin xiyoboni bo'lgan va Toshkentdagi birinchi haykaltaroshlik kompozitsiyasi o'rnatilgan edi. 1919 – 1926-yillarda bu yerni o'sha paytlarda rusum bo'lgan konstruktivistik uslubda ishlangan, bir vaqtning o'zida targ'ibot vazifasini bajaruvchi «O'roq va bolg'a» yodgorligi bezab turar edi. Urushdan keyin esa xiyobonning “xo'jayin”i Stalin haykali bo'ldi.

1968-yilda Karl Marks monumentini o'rnatishdi. Monument 1993-yilgacha, haqiqiy xalq qahramoni – Amir Temur saylanguncha “yashadi”. Endilikda poytaxtimiz markazida xiyobon va metro bekatiga o'z nomini bergan mashhur sarkarda jangovor otida viqor bilan o'tiribdi. Hozirda buyuk sarkarda Amir Temur monumnti joylashgan er tarixi Toshkent tarixida eng boy voqealar davri bo'lgan.



Xiyobon tarixi (soat millari yo'nalishi bo'yicha): Kaufman haykali (1913-yil); Kaufman xiyoboni (1913-yil); Stalin haykali (1953-yil); Karl Marks haykali (1977-yil).

1994-yil 31-avgust, mustaqillik arafasida taniqli haykaltarosh Ilhom Jabborov bronzadan quyma yasagan Amir Temur haykali Toshkent aholisiga taqdim etildi. Haykaltarosh akademik maktab vakili, usta haykaltarosh ko'p marotaba dunyo bo'ylab sayohat qildi, Meksikada Rivera, Orasko va Sikeyros haykallarini ko'rib o'z ijodini qayta nigohidan o'tkazdi. Aynan shu ijodiy safar natijasida Badiiy Akademiya akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Ilhom Jabborov biz bugun ko'rib turgan otliq Amir Temur haykalini mana shunday ajoyib ko'rinishda yaratdi.

Amir Temur haykali muallifi

Ilhom Jabborov



Ilxom Jabborov 1945 yili 30 iyunda Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanining To'qay qishlog'ida tavallud topgan.

Ilxom Jabborov o'rta ma'lumotni olgandan so'ng 1961 yili Toshkentdagi badiiy bilim yurtining teatr butaforiyasi bo'limiga o'qishga kiradi. Tasviriy san'atning markaziy maktablaridan

bo'lmish mazkur bilim yurtida rasm saboqlarining barcha qirralari o'rgatilar edi. Teatr butaforiyasi rassomi bo'lishning murakkab jihatlari mavjudligi sir emas. Bilim yurtida unga Taniqli rassom Grishenko ustozlik qilgan. Talabalik yillari Ilhom Jabborov hayoti va ijodida tasviriy san'at asarlarini o'rganishning alohida bir maktab vazifasini o'tagan. Badiiy bilim yurtini tugatgach, Namangan teatrda ijodiy faoliyatini boshladi. Atoqli musavvir Ural Tansiqboev ta'kidlaganlaridek, san'atkor bo'lish ulkan baxt ammo uning o'ziga xos mashaqqatlari bor. Tasviriy san'atga bo'lgan ishtiyoq bo'lg'usi haykaltaroshni 1966 yilda san'at institutiga boshladi. Bu erda u taniqli haykaltarosh Anvar Ahmedovdan saboq oldi.

Uning asarlarda rang - baranglik, kompozitsiyalarning boyligi yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Ayniqsa, «Xayol» nomli asari alohida e'tiborga sazovordir. Shunday qilib, Ilxom Jabborov ijodida o'ta rang-baranglikka boy haykallar vujudga kela boshladi. Haykaltarosh bir qator tarixiy allomalar obrazini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Bulardan, ayniqsa, «Ibn Sino», «Farobiy», «Navoiy va Jomiy», «Amir Temur», «Farg'oniy», «G'ofur G'ulom» kabi asarlari e'tiborga molikdir. Haykaltarosh turli kompozitsiyalar rang - barang portretlar yaratar ekan, zamonaviy haykaltaroshlikda maxorat egasi ekanligini ko'rsatadi.

Mamalakatimizda erishilgan mustaqillik san'atkorni yangilanish, uyg'onish, ijodiy kamolot sari yanada ilxomlantirdi. U buyuk sarkarda Amir Temur obrazini monumental haykalda tikladi. Haykaltarosh soxibqiron Temur obraziga murojat kilar ekan, buyuk sarkarda xaqidagi adabiyotlarni, miniatyura tasvirlarni, rassomlarning ishlarini sinchkovlik va qunt bilan o'rganadi. U bu haqida shunday deydi: Amir Temur obrazini yaratish orzusi menda ilk bor bundan 25 yilcha avval paydo bo'lgan edi. O'shanda Samarqand shaxrida bo'lganimda tepamda xuddi ulug' bobomiz ruxi uchib yurganday qalbim larzaga kelgan edi. Samarqandga ikkinchi marta borganimda Zarafshon bo'yida tepalikning ustida shox ruxi shaxarni qo'riqlab turganday ko'z oldimga keldi. Necha asrdan keyin etib keldim, uchib keldim, deyayotganday- Haykalimning g'oyasi xam shu fikr - o'ylar, xayolda tug'ilgan obraz asosida shakllandi. Temur 27 davlatga madaniyat olib borgan, zolimlarning dodini bergan, qaerda ko'zg'olon bo'lsa, borib bostirib, tinchitib kelgan. Haykaldagi ot jilovini maxkam ushlab turganining ramziy ma'nosi bor. Katta bir mamlakatni boshqarib turganday holati ifoda etilgan. Guyo mamlakatda osoyishtalik, tinchlik gullab - yashnasin, deb turganday g'oya ilgari surilgan .

Darhaqiqat Ilxom Jabborov bugungi monumental haykaltaroshlikka dadil kirib kelgan va bu sohada o'zining ulkan asarlarini yarata olgan etuk ijodkordir.

A.Temur shaxsini Toshkentning markaziy qismi ramzi sifatida tanlash tasodifiy emas. Buyuk sarkarda va davlat arbobi, o'zbek davlatchiligi asoschisining yimsoli poytaxt aholisini mustaqil davlatni yaxlit birlashtirishga, buyuk ajdodlarning ezgu ishlarini davom ettirishga chaqiradi. Haykal Amir Temurning o'tirgan holatini ifoda etadi. Hukmdor jangovar kiyimda, go'yoki g'alabali yurishdan qaytmoqda, chap qo'li bilan olovli otini jilovlamoqda, o'ng



qo'li uni kutib olayotgan odamlar uzra ko'tarilgan va mamlakatda tinchlik, osoyishtalik hukm surishini ma'lum qilmoqda. Hukmdorning viqorli salobati va yarim bukilgan qo'li farovonlik va taraqqiyot ramzidir. Haykal o'rnatilgan tagkursida esa, buyuk Temurning "Kuch – adolatdadur" shiorining to'rt tilda yozilganligini ko'ramiz.

Hukmdorning viqorli salobati va yarim bukilgan qo'li farovonlik va taraqqiyot ramzidir. 2009-yil noyabrda hukumat qaroriga muvofiq, Amir Temur xiyoboni tubdan qayta tiklandi: ko'pchiligining yoshi 100 dan o'tgan keksa daraxtlar kesib tashlandi. Xiyobon hududida hashar uyushtirilib, tanib bo'lmas darajada o'zgartirildi, ko'rkam, go'zal va shinam bog'-xiyobon vujudga keltirildi. Turli manzarali daraxtlar, gullar ekilib, zamonaviy favvoralar o'rnatildi.

Amir Temur haykali shahrimizdagi asosiy yodgorlik sanaladi. Amir Temur o'rta asrlarning kuchli siyosiy arbobi va sarkardasi bo'lib, 200 yil hukm surgan va Kavkazdan Xitoygacha, Sibirdan Hindistongacha hududni egallagan yirik va yagona imperiyani tuzgan. Temurning salobatli turishi va yuqoriga cho'zilgan qo'li homiylik, xalqqa tinchlik va xotirjamlik va'da berishining ramzidir. Shahrimiz haykaltarosh Ilhom Jabborovning yangi ijod namunalari bilan boyshiga, ular qadim o'zbek zaminida asrlar davomida turishiga umid qilib qolamiz

2.3 Buyuk ajdodlarimiz siymolarining tasviriy va haykaltaroshlik san'ati orqali tiklanishi

O'zbekiston Milliy axborot agentligi – O'zA muxbiri mustaqillik yillarida milliy tasviriy san'atimizda ro'y bergan o'zgarishlar, ijodkorlarni, xususan, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi sa'y-harakatlar berayotgan samaralar xususida O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi, O'zbekiston xalq rassomi Akmal Nuriddinov (Akmal NUR) bilan suhbatlashdi.

– Mustaqillik, erkinlik ijod ahli uchun g'oyat qadrlı tushunchalardir, – deydi A.Nuriddinov. – Istiqloł sharofati bilan O'zbekiston tasviriy san'atida ulkan ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Prezidentimiz Islom Karimovning 1997-yil 23-yanvardagi farmoniga binoan O'zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil etilishi milliy tasviriy san'atimiz ravnaqida muhim omil bo'layotir.

Bunday badiiy-ijodiy dargoh kam sonli davlatlardagina mavjud. 2012-yili MDH rassomlari konfederatsiyasi majlisida qatnashganimda bunga yana bir bor amin bo'ldim. Suhbatdoshlarimning ayrimlari rassomlar ijodiy uyushmalari hatto alohida binoga ega emasligi, milliy tasviriy san'at o'z holiga tashlab qo'yilganini kuyinib gapirgandi. Mamlakatimizda Badiiy akademiya, uning tasarrufidagi muassasalar uchun zamonaviy binolar ajratilgani, tasviriy san'at rivoji, ijodkorlar faoliyati, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida ekani xorijiy hamkasblarimizning havasini tortib keladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda rassomlarning erkin ijod qilishi uchun barcha shart-sharoit yaratilib, ijodiy tashkilotlarning moddiy-texnik bazasi tobora mustahkamlanmoqda. Rassomlarimiz ijodida bugungi tinch va osuda hayotimiz, go'zal tabiat manzaralari, insonning ruhiy olami, o'zlikni anglashga intilishini tasviriy san'atning turli janr va uslublarida, turfa bo'yoqlarda ifodalash kuchaydi. Turli tarixiy, ilmiy, adabiy manbalar, yozma yodgorliklarga tayangan holda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari ulug' ajdodlarimiz siymolariga murojaat ko'paydi. Ularning yorqin obrazi aks ettirilgan tarixiy mavzulardagi ko'plab asarlar yaratilmoqda. Yaponiya, Rossiya, Ozarbayjon kabi davlatlarda Alisher Navoiy

haykali qad rostladi. Bularning barchasi ijodkordan alohida qunt, bilim, mahorat bilan birga katta ma'suliyat ham talab etadi. Bobokalonlarimiz siymosi aks etgan badiiy va haykaltaroshlik asarlarining yaratilishi yoshlarda shonli tariximiz bilan faxrlanish, ajdodlarimizga munosib voris, ayni paytda dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan inson sifatida voyaga yetishida alohida tarbiyaviy ahamiyat kasb etsa, jahon tasviriy san'at ixlosmandlariga O'zbekistonning naqadar chuqur, teran tarixiy ildizga, boy ilmiy-ijodiy, intellektual salohiyatga ega mamlakat ekanini namoyon etmoqda.

Buyuk ajdodlarimiz siymolarining tasviriy va haykaltaroshlik san'ati orqali tiklanishida Malik Nabiyeu, Muhammadjon Nuriddinov, Jaloliddin Mirtojiyev, Sa'dulla Abdullayev, Zayniddin Faxriddinov, Javlon Umarbekov, Sobir Rahmetov, Temur Sa'dullayev, To'ra Quryozov, Rustam Xudoyberganov, Alisher Aliqulov, Niyozali Xolmatov singari ijodkorlarning hissasi katta. Yurtboshimiz tashabbusi bilan mustaqillik, tinchlik, Vatanga muhabbat, sadoqat, umrboqiy an'analar bardavomligi singari tabarruk tushunchalarni o'zida ifoda etgan "Baxtiyor ona", "Ezgulik arkasi", "Ko'hna va boqiy Buxoro", "Vatanga qasamyod" kabi monumental asarlar yaratildi. Istiqlool yillarida mamlakatimiz madaniy hayotida biyennale, fotobiyennale singari mutlaqo yangi tushunchalar paydo bo'ldi.

Har ikki yilda o'tkaziluvchi xalqaro biyennale mustaqillik davri o'zbek tasviriy san'ati erishayotgan yutuqlarni jahon san'atshunoslari, musavvirlari va muxlislarga namoyish etish, yurtimizda kechayotgan jo'shqin ijodiy jarayon bilan ularni yaqindan tanishtirish, ijodkorlarning o'zaro fikr va tajriba almashishiga xizmat qilmoqda. Toshkent xalqaro fotobiyennalesi yurtimizda fotografiyadek zamonaviy san'at turi jadal rivojlanib borayotgani, uning ravnaqi, fotorassomlarning ijodi davlatimizning doimiy e'tiborida ekanini namoyish etish bilan birga, osuda, to'kin va farovon hayotimizni, taraqiyot odimlarini, umrboqiy qadriyatlarimizni bor jozibasi va bo'y-basti bilan dunyoga xolis va haqqoniy namoyish etmoqda.

"Toshkent quvonchlari" bolalar rasmlari biyennelesi esa dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi o'g'il-qizlarning O'zbekiston haqidagi tasavvurini suratlar orqali

ifodalashi, yosh iste'dod sohiblarini aniqlash va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan yana bir qiziqarli loyihalardandir. Bunday xalqaro ko'rgazmalar tufayli xorijiy qatnashchilar O'zbekistonda san'at, madaniyat, ma'naviyat, yoshlar ta'lim-tarbiyasi, istiqboli davlatning doimiy diqqat-e'tiborida ekanini keng e'tirof etib, yuksak baholamoqda. Ushbu jihatlar har yili bahorda o'tkaziluvchi, o'quvchi-yoshlar uchun chinakam nafosat va go'zallik bayramiga aylangan Tasviriy san'at festivali doirasidagi tadbirlarda ham namoyon bo'lmoqda.

Musavvirlarimiz turli xalqaro ko'rgazmalar, ko'rik-tanlovlar, biyennalelarda muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda. Ko'rgazmalarga kutilganidan ancha ko'p tomoshabin tashrif buyurayotir. Chunki bugun ko'rgazmalarda namoyish etilayotgan asarlar tomoshabinni o'ylashga, teran mushohada yuritishga, mavzuning mohiyatini yuragidan o'tkazishga undamoqda.

– Bugungi globallashuv davrida yoshlarni “ommaviy madaniyat” ta'siridan asrash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida voyaga yetkazishda ijodkorlar oldida turgan eng muhim vazifalar nimalardan iborat?

– Insonning ruhiyati, ma'naviyati, qalbi, ongiga xavf soluvchi, didi va saviyasini o'tmaslashtirishga qaratilgan zararli g'oyalardan doim ogoh bo'lishimiz kerak. Biz ulkan tarixiy, bebaho adabiy, madaniy, ma'naviy merosning vorislarimiz. Bu qadimiy va boy xazina o'z milliy san'atimizni yanada ravnaq toptirib, yangidan-yangi asarlar yaratishga undayveradi.

San'at milliylikka asoslanadi, ayni paytda ezgulik, olijanoblik, do'stlik, hamjihatlik, ma'naviy yetuklik kabi umuminsoniy g'oyalarga xizmat qiladi. Yurtimizga kirib kelayotgan barcha asarni ham san'at deb qabul qilish noto'g'ri. Bugungi globallashuv jarayonida, tezkor axborotlashuv davrida yoshlarni oqni qoradan, yaxshini yomondan farqlay olishga o'rgatish ijodkorlar zimmasidagi asosiy vazifalardan.

O'zbek tasviriy san'ati Chingiz Ahmarov, O'rol Tansiqboyev, Rahim Ahmedov, Ne'mat Qo'ziboyev, Mannon Saidov, Baxtiyor Boboyev, Ro'zi Choriyev singari buyuk rassomlar asos solgan katta mahorat maktabiga ega. Bu

ma'naviy merosni o'rganish, mazmun-mohiyatini yoshlarga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, hozirgi kunda yangi davrning yangicha fikrli, keng dunyoqarashli rassomlari shakllanmoqda. Ijodkor mutolaa qilmasa, adabiy merosimizga murojaat etmasa, to'kis, mukammal asarlar yaratishi qiyin.

– Yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar haqida ham to'xtalib o'tsangiz.

– Mamlakatimizda yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun barcha sharoit yaratilmoqda. Toshkent Fotosuratlar uyi, Xalqaro madaniyat karvon saroyi, O'zbekiston madaniyati va san'ati ko'rgazmasi zali, O'zbekiston Tasviriy san'at galereyasi, Yoshlar ijod saroyi, Milliy san'at markazi singari o'z ko'rgazmalari mavzusi va yo'nalishiga ega ko'plab san'at dargohlari barpo etildi. "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi va boshqa bir qator ijodiy va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan "O'zbekiston tasviriy san'ati", "Yangi avlod", "Navqiron O'zbekiston" singari festivallar, "Kelajak ovozi" respublika ko'rik-tanlovi, yosh musavvirlarning ijodiy-intellektual saviyasini yuksaltirishga yo'naltirilgan ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'g'il-qizlarning badiiy didi, tafakkurini yuksaltirib, ijodiy mahoratini oshirishga xizmat qilmoqda.

Iqtidor sohiblarining xorijiy davlatlarda o'tkazilayotgan xalqaro ko'rgazmalarda qatnashishi uchun keng sharoit yaratilmoqda. Jumladan, Dilorom Mamedova, Bobur Ismoilov, Kamoljon Boboyev, Temur Ahmedov, Farrux Ahmadaliyev, G'ayrat Ibrohimov singari o'z uslubi va ijod yo'liga ega ko'plab iste'dodli yosh musavvirlarning asarlari mamlakatimizda o'tkazilayotgan ijodiy loyihalar bilan birga Yevropa davlatlari, Xitoy, Janubiy Koreya singari mamlakatlardagi ko'rgazmalarda namoyish etilmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida tasviriy san'atning ko'plab yo'nalishlari bo'yicha yoshlarga ta'lim berilmoqda. Mazkur oliy ta'lim dargohida jahonning ko'plab universitetlari, ijodiy markazlari bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Talabalarning san'atshunoslar va musavvirlar bilan doimiy uchrashuvlari tashkil etilmoqda. Kamoliddin Behzod memorial bog'-muzeyida

tasviriy san'atga qiziquvchi yoshlarning ijodiy ko'rgazmasi muntazam tashkil etilmoqda.

– Badiiy akademiya tomonidan Vatanimiz mustaqilligining yigirma ikki yillik bayramiga bag'ishlab qanday tadbirlar tashkil etilmoqda?

– Prezidentimiz Islom Karimovning shu yil 12-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori asosida “Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O‘zbekiston!” degan g‘oyani o‘zida mujassam etgan turli ko‘rgazmalar, ijodiy tanlovlar, uchrashuvlar, muloqotlar, san’at haftaliklari yurtimizning barcha hududlarida o‘tkazilmoqda. “Ilhomlar dunyosi” ko‘rgazmasi Buxoro, Navoiy, Nukus, Urganch, Qarshi, Termiz shaharlarida o‘tkazildi. “Ozod va obod Vatan!” shiori ostida malakatimizning barcha hududlarida tasviriy san’at kunlari tashkil etilmoqda.

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Markaziy ko‘rgazmalar zalida Vatanimiz mustaqilligining 22-yilligiga bag‘ishlangan “Toshkent: kecha va bugun” mavzucidagi badiiy ko‘rgazma ochildi. Unda poytaxtimizning kechagi kuni, bugungi taraqqiyoti, obod mahallalari, muhtasham binolari, to‘kin va farovon bozorlari, umrboqiy an’ana va qadriyatlari, barkamol avlod kelajagi yo‘lida ko‘rsatilayotgan cheksiz mehr va e’tibor aks ettirilgan uch yuzdan ortiq asar namoyish etilmoqda.

Mustaqillik rassomlarimiz uchun bitmas-tuganmas ilhom manbaidir. Uning rangin jilolari bugungi tinch va osoyishta hayotimizda, barcha sohalardagi taraqqiyot odimlarida, asrlarga tatigulik yutuqlarda, Vatanimizning jahon hamjamiyatidagi tobora yuksalib borayotgan nufuzi va obro‘sida, ongu shuurimiz, hayot tarzimiz, tafakkurimizda o‘z aksini topmoqda. Shunday ekan, eng ulug‘, eng aziz ne‘mat–mustaqilligimizni mustahkamlash, ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, badiiy asarlarda tarannum etish bizning ham ijodkorlik, ham farzandlik burchimizdir.

XULOSA

Buyuk ajdodlarimiz siymolarining tasviriy va haykaltaroshlik san'ati orqali tiklanishida Malik Nabiyeu, Muhammadjon Nuriddinov, Jaloliddin Mirtojiyev, Sa'dulla Abdullayev, Zayniddin Faxriddinov, Javlon Umarbekov, Sobir Rahmetov, Temur Sa'dullayev, To'ra Quryozov, Rustam Xudoyberganov, Alisher Aliqulov, Niyozali Xolmatov singari ijodkorlarning hissasi katta. Yurtboshimiz tashabbusi bilan mustaqillik, tinchlik, Vatanga muhabbat, sadoqat, umrboqiy an'analar bardavomligi singari tabarruk tushunchalarni o'zida ifoda etgan "Baxtiyor ona", "Ezgulik arkasi", "Ko'hna va boqiy Buxoro", "Vatanga qasamyod" kabi monumental asarlar yaratildi. Istiqlol yillarida mamlakatimiz madaniy hayotida biyennale, fotobiyennale singari mutlaqo yangi tushunchalar paydo bo'ldi.

Shu tufayli bu haykaltaroshlik san'ati yodgorliklari asrlar davomida har qanday falokatlarini engib o'tib, o'z ko'rku jamolini, jozibasi va umri boqiy bo'yoqlarini ko'z-ko'z qilib turibdi. Ta'mirlovchi ustalar ajdodlarimiz tabarruk xotirasi oldida hamisha ta'zimda bo'lib, ularning hayot sinovlaridan mardona o'tgan ish uslublariga qat'iy rioya qilishi, sharaflı kasbiga sadoqatini bundan keyin ham bir necha asrlar davomida namoyish etishi kerak.

O'zbekiston haykaltaroshlik yodgorliklari o'ziga xosligi, go'zalligi, salobati, kompozitsion tuzilishining o'ta uyg'unligi va mutanosibligi, ulug'vorligi, nafosatga boyligi bilan jahonga mashhurdir. Lekin qudratli vaqt ulardan ko'pchiligining bag'rida chuqur asorat qoldirgan. Shu tufayli inshootlar ta'mirga muhtojdir. Ta'mir ishi esa kishidan yuksak tajriba, chuqur bilim, yuqori mahorat va malaka talab qiladi. Zotan, bu go'zallik obidalariga ikkinchi umr baxsh etish ishtiyoqi bilan yongan xalq ustalari zimmasida muqaddas, sharaflı, ayni paytda mashaqqatli burch turibdi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida tasviriy san'atning ko'plab yo'nalishlari bo'yicha yoshlarga ta'lim berilmoqda. Mazkur oliy ta'lim dargohida jahonning ko'plab universitetlari, ijodiy markazlari bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Talabalarning san'atshunoslar va musavvirlar bilan doimiy

uchrashuvlari tashkil etilmoqda. Kamoliddin Behzod memorial bog‘-muzeyida tasviriy san‘atga qiziquvchi yoshlarning ijodiy ko‘rgazmasi muntazam tashkil etilmoqda.

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Markaziy ko‘rgazmalar zalida Vatanimiz mustaqilligining 22-yilligiga bag‘ishlangan “Toshkent: kecha va bugun” mavzucidagi badiiy ko‘rgazma ochildi. Unda poytaxtimizning kechagi kuni, bugungi taraqqiyoti, obod mahallalari, muhtasham binolari, to‘kin va farovon bozorlari, umrboqiy an‘ana va qadriyatlari, barkamol avlod kelajagi yo‘lida ko‘rsatilayotgan cheksiz mehr va e‘tibor aks ettirilgan uch yuzdan ortiq asar namoyish etilmoqda.

Mustaqillik rassomlarimiz uchun bitmas-tuganmas ilhom manbaidir. Uning rangin jilolari bugungi tinch va osoyishta hayotimizda, barcha sohalardagi taraqqiyot odimlarida, asrlarga tatigulik yutuqlarda, Vatanimizning jahon hamjamiyatidagi tobora yuksalib borayotgan nufuzi va obro‘sida, ongu shuurimiz, hayot tarzimiz, tafakkurimizda o‘z aksini topmoqda. Shunday ekan, eng ulug‘, eng aziz ne‘mat—mustaqilligimizni mustahkamlash, ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, badiiy asarlarda tarannum etish bizning ham ijodkorlik, ham farzandlik burchimizdir.

Respublikamiz zamini – bu insoniyat paydo bo‘lganidan, to yirik davlatlar tashkil topgangacha bo‘lgan turli davrlarning ajoyib tarixiy yodgorliklarini saqlab kelayotgan o‘ziga xos qimmatbaho zahiradir. Toshkentning Amir Temur xiyobonida qad ko‘targan Amir Temur haykali haykaltaroshlikning tengsiz namunalaridan biri ekanligi shubhasiz. Amir Temur nomidagi xiyobon — shaharning alohida belgilangan maydoni, boshlang‘ich koordinatasi timsolidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 1992.
2. Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san‘atni yanada rivojlantirishning davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31- mart farmoni “Xalq so‘zi” gazetasi. - T. 1997-yil 1-aprel.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O‘zbekiston, 1998.
4. Karimov. I. A.“Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” T., “Ma’naviyat” 2008.
5. Karimov I.A.O‘zbekiston siyosiy-iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. - Toshkent: O‘zbekiston, 1995.
6. Karimov I. «Ma’naviyat falsafa va hayot». -T., «Fan».2001.
7. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni -Toshkent, 1992.
8. O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim markazi kontsepsiyasi.- Toshkent: Xalq ta’limi, 1992.-1-son.
9. Abduqodirov A. Obidalar jilvasi. -Toshkent: O‘zbekiston,
10. Avedova N.A. Toshkent o‘ymakorligi. - Toshkent: O‘z dav. Badiiy adabiyot nashr, 1961.
11. Azimov I. Farg‘ona vodiysining arxitektura yodgorliklari.-Toshkent: O‘zbekiston, 1986.
12. Azimov I. O‘zbekiston naqshu-nigori. -Toshkent: Adabiyot va san‘at nashri, 1987.
13. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo.-Toshkent, 1992-yil.
14. Asotirlar va rivoyatlar. -Toshkent: Yozuvchi, 1993-yil. 15. Anuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. -Toshkent: O‘qituvchi, 1969.
16. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar.-T.: 1968.
17. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. -T.: O‘zbekiston, 1992.
18. Amanullayev A.A. Oliy o‘quv yurtlarida talabalarni ganch o‘ymakorligi to‘g‘arak ishlarini boshqarishga tayyorlashning ilmiy metodik asoslari. (Badiiy

grafika fakultetlari misolida). Ped. fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: TDPU, 2001.

19. Amir Temur o'g'itlari: (to'plam) tuzuvchilar B.Ahmedov, A.Aminov-T.: Navro'z, 1992.

20. Alexin A.D. «O yazike izobrazitelnogo iskusstva», - M., 1973.

Internet saytlari

www.ziyo.net

1.P.P. Shabaratov "Miniatyura" maruzalar matni. Toshkent Nizomiy nomli TDPU. 2000 yil.

2. T.Q o'ziev. Behzod va Tamaddun. Toshkent-2000 yil.

3. Bulatov S.S. Ganchkorlik, naqqoshlik va yog'och o'ymakorligiga oid adabiyotlarning izohli lug'ati. – T.: “Mehnat”, 1991.

4. Xalq badiiy hunarmandchilik va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, - T: “Toshkent oqshomi” oynomasi, 2-aprel, 1997-yil, 38-son.